



T.J. ENAZAROV

**SHAHNISABZ TUMANI
HUDUDI JOY NOMLARINING
TARIXIY-QIYOSIY TADQIQI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLJY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ENAZAROV TOLIB DJUMANAZAROVICH

**SHAHNISABZ TUMANI
HUDUDI JOY NOMLARINING
TARIXIY-QIYOSIY TADQIQI**

MONOGRAFIYA



**“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021**

KBK: 81.2-3(O'zb)

E 61

UO'K: 811.512.133'373.21

ISBN 978-9943-7804-8-4

Enazarov, Tolib Djumanazarovich.

Shahrisabz tumani hududi joy nomlarining tarixiy-qiyosiy tadqiqi
[Matn] : monografiya / T.D. Enazarov. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
– 188 b.

Ushbu monografiya Shahrisabz tumani mikrotoponimlarining
lisoniy jihatdan tarixiy-qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan. Unda ikki
masala qo'yilgan va ular quyidagicha nomlanga: "Shahrisabz tumani
hududi joy nomlarining qo'llanish xususiyatlari va leksik-morfologik
tasnifi" hamda "Shahrisabz tumani hududi joy nomlarining leksik-
semantik tasnifi" deb nomlangan. To'plangan toponimik materiallarning
asosiy qismi monografik tadqiq uchun qo'yilgan masalalar doirasida
tahlilga tortilgan. Bu monografiyada toponimant, toponimik aniqlagich,
topoasos, toponimlarning leksik-morfologik tavsifi hamda tasnifi,
shuningdek, ularning leksik-semantik tasnifi shaklidagi bir qancha
onomastik ilmiy terminlar ham faol qo'llanilgan

Mazkur monografiya "O'zbek onomastikasi", "O'zbek
toponimikasi", shuningdek, "O'zbek dialektologiyasi"ning dolzarb
masalalari bilan shug'ullanuvchi filolog, geograf va tarixchilarga
mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

T. Tog'ayev – f.f.n., dotsent.

Taqrizchilar:

A. Sobirov – professor.

M. Turdibekov – dotsent.

Ushbu monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti ilmiy-texnik kengashining 2021-yil 29-noyabrda
(8-senti bayonoma) nashrga tavsifa etilgan.

© Enazarov T.D.
© "Nodirabegim" nashriyoti, 2021.

KIRISH

1. SHAHRISABZ TUMANI HUDDUDINING TARIXIY, GEOGRAFIK VA LISONIY TAFSILOTI

Tarixiy yozma manbalardan ayonki, Shahrisabz tumani hududi
qadim tarixga ega bo'lgan joylardan biri. Shuning uchun ham u tarixiy
manbalarida alohida bir hududdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning
bir bo'lak sifatida tilga olingan¹. *Oqsuv, Tanqas, G'ildaryo, Qorsuv*
daryo singari mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan daryolarning mavjudligi
va sharqiy tomondan tog'lar bilan o'ralganligi ushbu hududda
dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishiga asos bo'lgan.

Bu tadqiqotdagi *toponimik materiallar* esa 1989-1992-yillardagi
to'plangan dialektologik amaliyot va individual ilmiy kuzatishlar
asosida to'plangan *onomastik materiallar* hisoblanadi. Bularдан ayon
bo'lib turibdiki, ushbu monografik ish Shahrisabz shahri va tumanining
yaqin vaqtdagi *toponimik tarix*ning o'ziga xos ilmiy ifodasidir. Chunki
vaqt o'tishi bilan hamma narsa, xususan, joy nomlari ham ma'lum bir
o'zgarishlarga uchraydi. Shu o'rinda shahar so'ziga, ya'ni shahar
toponimik aniqlagichi(TA)ga to'xtalsak, bu so'z sanskritchada
"*pedshohning qarorgohi*" ma'nosini anglatadi². Shuning uchun ham
u (shahar)ni davlat ichidagi davlat ham deyishadi. Agar e'tibor qilinsa,
Shahrisabz shahri toponimida ikkita shahar so'zi tovush tushishi
hodiasini boshidan kechirib, shahri holatida qo'llangan. Chunki har
aytilgan toponimga xos onomastik xususiyatlardan biridir. Chunki har
bir shaharning o'z qiyofasi, o'z tarixi va qismati bor. Har qanday
shaharning shon-shuhrati uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-
ma'rifiy hayotida tutgan o'rni bilan belgilanishi tabiiydir. Shahar ichidagi

¹ Oqsuv, Kuyb. А. Очерки Шахрисабзского бассейна.-С.Петербург, 1880.-В. 37. Захридани
Мушаввир Бобур Бобурнома.-Ташкент: Юлдузча, 1989. 368 б. Ўзбекистон халқлари
тарихи. I-жилд. –Ташкент: Фан, 1992. 188 бет. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. –
Ташкент: Унитуричи, 1992. 292 бет. Шонматов К. Қанг давлати ва қанглилар. –Ташкент:
Фан, 1990. 168 бет. Бердиков Е. Заргар кутиси. –Ташкент: Ёш гвардия, 1990. 284 бет.
Товурнома. Амир Темур Кўрагон жангномаси. –Ташкент: Чўпон, 1990. 350 бет. Селван
Али Раис. Миротул маъони. –Ташкент: Фан, 1963. 160 бет. Вэмбери Херман. Бухоро
давлати Моноронини тарихи. –Ташкент, 1990. 92 бет. Пидлес Ш. Сирли Кушоналар
сонинги. –Ташкент: Фан, 1990. 38 б.

² Корнев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. –Ташкент, Ўзбекистон миллий
энциклопедияси, 2005 –В. 5, 40.